



INGLIZ VA O'ZBEK TILIDA "OG'IZ" SO'ZI ORQALI IFODALANGAN FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING STRUKTURAL-GRAMMATIK XUSUSIYATI

Akbarova Qumriniso Ilhomjon qizi

Farg'ona davlati universiteti magistranti

Nurmatova Munisxon

Farg'ona Davlat Universiteti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7944541>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 10-May 2023 yil

Ma'qullandi: 15-May 2023 yil

Nashr qilindi: 17-May 2023 yil

KEY WORDS

frazema, frazeologik birliklar, erkin va turg'un iboralar, grammatik nisbatlar: ortirma, aniq, majhul

ABSTRACT

Ushbu maqolada "og'iz" so'zi orqali ifodalangan frazeologik birliklarning struktural-grammatik xususiyati tahlil qilingan va misollar bilan izohlangan.

Frazeologiya erkin va turg'un assotsiatsiyalar bo'lgan so'z birikmalari yoki so'z birikmalarining ma'nosi va tuzilishini o'rganadi. So'zlarning assotsiatsiyasi tuzilish jihatdan erkin va turg'un bo'lib, ikkala shakl ham so'z birikmasiga yoki gapga teng. Ammo ularning har biri qo'llanilayotgan ma'noga qarab o'ziga xos fazilatlariga ega.

So'z birikmalari ham **erkin**, ham **turg'un** bo'lishi mumkin. O'zining leksik-grammatik xususiyatlariga ko'ra tildagi har bir so'z boshqa so'zlardan o'ziga xosdir. So'z birikmalari ham shunday xususiyatga ega. So'z va iboralarni aralashtirishning o'ziga xos usullari mavjud. Bu grammatik abstraksiyaning natijasi.

So'z birikmasi – bir-biridan farq qiluvchi leksik ma'noga ega bo'lgan ikki yoki undan ortiq so'zlarning o'zaro qo'shib, grammatika va ma'no jihatidan o'zaro munosabat hosil qilishda bog'lovchi vazifasini bajaradigan sintaktik tuzilma **so'z birikmasidir**. Ta'rifdan ko'rinib turibdiki, so'z birikmalarida lug'aviy ma'nolar va grammatika o'rtasidagi bog'lanish hosil qilib, murakkab tushunchalar hosil bo'ladi. Masalan, *qizil va qalam* so'zlari bir-biriga bo'ysunib, *qizil qalam* turining murakkab g'oyasini yaratadi.

So'zlar bir-biridan farq qilgan holda tez-tez aralashtiriladi. **Erkin birikmalar** deb ataladigan bu so'z birikmalari nutq paytida tabiiy ravishda sodir bo'ladi.

Masalan, *Bahorning mayin shabadasi daraxt shoxlarini tebratdi* gapida *bahorning shabadasi, mayin shabada, daraxt shoxlari, shoxlarini tebratmoq, shabadasi tebratdi*.

Ushbu misolda beshta erkin so'z birikmasi mavjud. «**Sintaksis**»ning o'rganish obyekti so'zlarning mana shunday erkin birikmalar hosil qilish qoidalari hisoblanadi [5].

Tilda boshqa birikmalar ham borki, ular nutq davomida hosil bo'lmay, balki tilning umumiy tuzilishiga kirganligi sababli so'zlar o'rtasida semantik yoki grammatik bog'lanish mavjud emas. Bunday holda, ular so'zlarning mavjud ma'no markazlari bilan qo'shib, tarkibidagi so'zlar bilan bir xil ma'noni

oladi. Shuning uchun ular **turg'un so'z birikmalari** sifatida tanilgan. Chunonchi, *Ular bir yoqadan bosh chiqarib mehnat qiladilar* gapidagi so'zlar birgalikda murakkab birikma hosil qilganligi sababli, "bir yoqadan bosh chiqarmoq" so'zi bu gapda turg'un birikma hisoblanadi. Demak, bu birikma yagona leksik tushunchani bildirgan va uning tarkibini tashkil etgan so'zlar sonidan qat'iy nazar gapda sintaktik bo'lak vazifasini bajargan.

Frazeologiya tilshunoslikning turg'un so'z birikmalarini o'rganuvchi alohida kichik sohasi hisoblanadi.

So'zlarning turg'un birikmasi hamma vaqt so'z birikmasiga emas, balki gapga teng ham bo'lishi mumkin: *Sichqonning ini ming tanga bo'ladi*, **Og'zing qani desa, qulog'ini ko'rsatadi** kabi. Ko'rinib turibdiki, gaplar ham erkin va turg'un bo'ladi, huddiki so'z birikmalaridek. Turg'un assotsiatsiyalarning ikki toifasi birikmaga ekvivalent va so'z birikmasiga teng bo'lganlardir. Turg'un uyushmalar turg'un so'z birikmalariga qaraganda kengroq ta'rifga ega. Chunki turg'un uyushmalarga *yog' tushsa yalaguday, qovog'idan qor yog'adi* kabi qo'shilmalar bilan birga *kuchiga kuch qo'shildi, zangori kema kapitani, viloyat qurilish banki, Farg'ona davlat universiteti, FarDU akademik litseyi* kabi turg'un uyushmalar ham kiradi [1].

Ichki sintaktik qurilishi. Frazeologik birliklarning ifoda plani sifatida kamida ikkita mustaqil so'z (leksema) qatnashadi. O'zaro sintaktik bog'langan bu so'zlar mohiyatiga ko'ra birikmaga yoki gapga teng bo'ladi. Bunday birikma yoki gapdan yaxlitligicha anglashiladigan frazeologik ma'no uni sintaktik birlik (nutq birligi) deb emas balki semantic birlik (til birligi) deb qarashga olib keladi. Shu sababli birikmaga yoki gapga tenglik haqida gapirganda iboraning ichki sintaktik qurilishi ko'zda tutiladi.

Umuman ibora tarkibida qatnashgan so'zlar orasidagi sintaktik bog'lanish o'z kuchini saqlaydi, o'lmaydi, faqat ichki bo'ladi. Masalan:

Og'zi bormadi kimning nima qilishga. Biror andisha mulohaza bilan aytishni ma'qul ko'rmaslik. Sinonimi: **tili bormadi** [4].

G'oz o'zi gapirishga og'zi bormay, "Sen gapir", - deganndek Umaraliga qaradi. (I. Rahim, Ixlos.)

Ushbu iborani ichki sintaktik qurilishi jihatidan gapga teng (ega bilan kesim munosabatini aks ettiradi), ayni shu iboraning **og'zini juftlamoq (Og'iz juftlamoq), og'zini ko'pirtirmoq (Og'iz ko'pirtirmoq)** varianti esa birikmaga teng (vositasiz to'ldiruvchi bilan to'ldirilmish munosabatini aks ettiradi). Bunday sintaktik qayta qurilish bu fe'l iborada nisbat (daraja) yasalishi munosabati bilan yuz beradi: o'timsiz fe'l bosh kelishikdagi ot bilan munosabatga kirishgan bo'lsa, ortirma nisbat yasovchisini olib o'timliga almashadi. Ko'rinadiki bir komponentdagi Grammatik o'zgarish ikkinchi komponentga ham shunga muqobil o'zgarishni talab qiladi, natijada gapga teng holat birikmaga teng holatga o'tadi. Bunday ikki xil sintaktik qurilish shaklida bo'la oluvchi iboralar anchagina: **Og'zini ochirmaslik (og'iz ochmoq), og'zini ochirmoq (og'zini ochmoq), og'zini ochirmoq (og'zi ochildi, angraymoq. Variant: og'zini ochirmoq, Kimningdur) kabilar** [5]:

Uning gapi – gap, seniki faqat maslahat, e'tiborga olsa-oladi, bo'lmasa – yo'q, og'zingni ochib qolaverasan.

Ingliz tilida ham ortirma nisbatga ega bo'lgan ibora bu **make one's mouth water** ya'ni og'zidan suvini keltirmoq:

Palov can make your mouth water when it looks and smells extremely good. "That delicious smell from the kitchen is making my mouth water."

Shuningdek majhul va aniq nisbatlardagi misollarni ham ko'rib o'tsak Masalan: **Og'izga**

olinmoq (*Og'izga olmoq*), **og'izga tushmoq** (*og'izga tushmoq*) va **og'ziga olmoq** (*Gapirmoq-umuman gapirmaslik. Sinonim: tilga olmoq*)

Majlisda sizning masalangiz og'izga olindi (majhul nisbat).

Matyoqubning dabdabali to'yi barchaning og'ziga tushdi (aniq nisbat).

Rus-tuzem maktabiga kiraman. U yerda bolalarni domlasi so'kmas ekan, bunday sassiq narsalarni og'ziga olishga jirkanar ekan. M. Ismoiliy, Frag'ona tong otguncha (aniq nisbat).

Iboralarning ikkinchi darajali gap bo'laklaridan aniqlovchi vazifasida kelish holatlari ham uchrab turadi. Masalan:

Qo'y og'zidan cho'p olmagan yigit (qanday yigit);

Og'zi katta- kata og'iz. 1. Soxta kibr-havoli: maqtanishni yaxshi ko'radigan.

Qodirov og'zi katta erkaklarni qanoti ostiga olish yo'li bilan o'z mavqeini kuchaytirishga intilganini sezib turardi. Sh. Rashidov, Bo'rondan kuchli.

2. Imtiyozli mavqega ega (kinoyali).

Oxiri uydagilar ko'nishdi-yu qishloqdagi bir ikkita og'zi kattalar aslo bo'lmaydi deyishibdi. R. Fayziy, Cho'lga bahor keldi.

Mealy-Mouthed- munozarali narsa haqida o'z fikrini aytishga ikkilanadigan kishi

No one wants to talk! They just have these mealy-mouthed conversations that end up going nowhere.

(Hech kim gapirishni xohlamaydi! Ular shunchaki hech narsa bilan tugamaydigan suhbat olib borishyapti.)

Smart Mouth- kinoyali yoki boshqalarga hurmatsizlik bilan gapiradigan odamni tasvirlash uchun ishlatiladi.

Stop being a smart mouth with your mother! Listen to her. She is just trying to help you out.

Onang bilan o'zingcha "aqli og'iz bo'lishni" bas qil! Unga quloq sol. U faqat senga yordam berishga harakat qilmoqda.

Misollardan ko'rinib turibdiki, ichki sintaktik qurilishi birikmaga teng iboralar ham, gapga teng iboralar ham yig'iq va yoyiq bo'ladi, odatdagi (erkin) sintaktik bog'lanishlarda qanday bo'laklar qatnashsa, iboralar tarkibida ham huddi shunday bo'laklar qatnashadi.

Grammatik jihatdan bir xil frazeologik sinonimlar ro'yhati

Bir uyaga birlashuvchi iboralarning barchasi bir xil grammatik qurilishining ko'rinishlari:

Sinonimlar birikmalarining bog'anish shakli, shuningdek, qaysi so'z turkumi bilan ifodalanishi bir xil bo'ladi:

a) ot bilan fe'ldan tarkib topgan iboralar:

-ikki ibora qatnashadigan iboralar: **og'iz** urmoq, **og'iz** solmoq, **og'ziga nos solmoq**, **og'ziga talqon solmoq**

b) sifat bilan otdan tarkib topgan iboralar:

- A Big Mouth, Bad-Mouth, Dragon Mouth, Motor-Mouth, Smart Mouth [6]

- son bilan otdan tarkib topadi:

-ikki iborali: **bir og'izdan-bir ovozdan**;

-uch iborali : **bir og'iz-bir shingil-bir chimdim**.

d)ot bilan ravishdan tarkib topadi:

Og'zi katta, og'zi yomon, og'zi bo'sh

Grammatik qurilishi har xil frazeologik sinonimlar iboralar komponentlarining bog'lanish shakli ham qaysi turkum so'zi bilan ifodalanishi ham har xil bo'ladi:

1. Biri ot va fe'ldan, ikkinchisi ravish va fe'ldan tarkib topadi: **Og'ziga urmoq, og'ziga qaramoq**

Xulosa qilib aytganda, ikki tilda mavjud sinonimik, antonimik, omonimik va paronimik frazeologik iboralar ham so'zlarning shakl munosabatiga ko'ra turlari kabi uslubiy vazifa bajaradi. Ularning gapdagi grammatik va semantik uslubiy vazifalari tilning ta'sirchanligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ergashova, D. I., & qizi Dexqonboyeva, O. M. (2023). HUSHMUOMILA MUROJAAT SHAKLINING TURLI DARAJALARDA QO'LLANILISHI. Educational Research in Universal Sciences, 2(3), 13-20.
2. Omonturdiyev A., N. Raimnazarova. Hozirgi O'zbek Adabiy Tili. Termiz – 2010
3. Qizi, D. N. O. M. (2022). THE USE OF POLITICAL EUPHEMISMS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES. International Journal of Advance Scientific Research, 2(12), 53-58.
4. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1978- B. 200
5. Sotvoldiyevna, U. D. (2022). Political Euphemisms in English and Uzbek Languages (A Comparative Analysis). Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching, 9, 92-96.
6. Axatova Kumushxon Qurbonali Qizi, Nurmatova Munis Mashrabovna, & Xolmatova Muhayyo Abduhalim Qizi (2022). INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA AKTUALLASHTIRUVCHI VOSITALAR. Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali, 1 (12), 130-133.
7. Mashrabovna, N. M. (2022). MAIN TYPES OF LANGUAGE POLITENESS. PEDAGOGS jurnali, 20(2), 50-53.
8. Муротовна , Қ. М. ., & Машрабовна , Н. М. . (2022). Бадий Нутқ Ва Бадий Тасвир. Miasto Przyszłości, 28, 445–447.
9. Mashrabovna, N. M. (2022). NOVERBAL MULOQOTNI IFODALOVCHI VOSITALAR. Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 10(11), 5-7.
10. <https://englishbyday.com/mouth-idioms/>